SAMARQAND VILOYATI BULUNG‘UR TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 25 - yanvar 29-7-93-Q/22 Bulung’ur tuman hokimligi

“E-IJRO AUKSION” elektron onlayn-auksion maydonchasiga chiqarish uchun yer uchastkalariga mulk va ijara huquqining minimal qiymatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-dekabrdagi “Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun bo‘sh turgan yer uchastkalarini berish tartib taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1023-sonli qaroriga muvofiq Samarqnad viloyati Moliya bosh boshqarmasi, viloyat Davlat soliq boshqarmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Samarqand viloyat boshqarmasining tavsiyalarini inobatga olib, qabul qilingan Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 21-yanvardagi 34-7-0-Q/22-sonli qaroriga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Tumanda “E-IJRO AUKSION” elektron onlayn-auksion savdo maydonchasiga chiqarish uchun yer uchastkalariga mulk va ijara huquqining minimal qiymati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman Qurilish bo‘limi (A.Rustamov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Normatov) yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlasin.

3. Tuman Qurilish bo‘limi (A.Rustamov), tuman Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi (A.Maxramov) elektron onlayn-auksion savdo maydonchasi orqali sotilgan yer uchastkalaridagi majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishi ustidan

belgilangan tartibda monitoring olib borsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)larga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2021-yil 19-yanvardagi “Samarqand viloyati hokimining 2021-yil 16-yanvardagi “E-IJRO AUKSION” elektron onlayn-auksion savdo maydonchasiga chiqarish uchun yer uchastkalaridan doimiy foydalanish huquqining minimal qiymatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5-Q-sonli qarori haqida”gi 16-Q-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Elmuratov, A.Xoliqulov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Tuman hokimi **S.Astonov**

Булунғур туман ҳокимининг
2022 йил 25 январдаги
29-7-93-Q/22-сон қарорига
1-илова

“E-IJRO AUKSION” elektron onlayn-auksion savdo maydonchasiga chiqarish uchun yer uchastkalariga mulk va ijara huquqining minimal qiymati

(so‘mda)

T/r	Tuman nomi	*Bir yillik soliq summasi (1 ga uchun)	**Yer uchastkasining joyi bo‘yicha tumanni iqtisodiy rivojlanishiga qarab belgilangan koeffitsentlari	“Davyergeodezkadastr” qo‘mitasi organlarining yer uchastkasini tanlash materiallarini tayyorlash ishlarining qiymati				Arxitektura va rejalashtirish topshirig‘ini (APT) ishlab chiqish uchun BHM ning 4 baravari	Yer uchastkasini tanlashga doir boshqa materiallarni tayyorlash uchun BHM ning 2 baravari
				0.01gektardan ko‘p, bo‘lmaganda BHM ning 2 baravari	0.01gektardan ko‘p, lekin 0.05 gektardan ko‘p bo‘lmaganda BHM ning 3 baravari	0.05 gektardan ko‘p, lekin 0.1 gektargacha bo‘lmaganda BHM ning 4 baravari	0.01gektar yoki undan ko‘p, bo‘lmaganda BHM ning 5 baravari		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Bulung‘ur tumani	35 350 000	0.7-3.0	540 000	810 000	1 080 000	1 350 000	1 080 000	540 000